FARG‘ONA VILOYATI QUVA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 30-iyul 161-11-156-Q/24 Quva tuman hokimligi

Quva tumanidagi Jome masjidlar hududiga yo’l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi 377-son “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Quva tumanidagi Jome masjidlar atrofida harakat havfsizligini ta’minlash va tirbandliklarni oldini olish, avtomobillarning harakatlarini tartibga solish maqsadida, Jome masjidlar hududidagi yo'lning ikki chetiga 3.27 "To'xtash taqiqlangan" taqiqlovchi yo'l belgilarini o'rnatish yuzasidan Quva tuman ichki ishlar bo‘limining 2024-yil 30-iyundagi 38/8-857-son xatiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Quva tuman ichki ishlar bo‘limining 2024-yil 30-iyundagi 38/8-857-son xati qanoatlantirilsin.

2. Quva tumani yo‘llardan foydalanish Davlat muassasasi (R.Xaydarov), Farg‘ona viloyati maxsus ekspluatatsiya-montaj bo‘limi bilan birgalikda Quva tumani 4k-832a “Quva tumaniga kirish” avtomobil yo‘lining 3 km.da, Quva tumani Tinchlik MFY Yorqin ko‘chasida joylashgan “Abu Xanifa” jome masjidi oldiga, 4k-920g “Quva tuman xalqasi” avtomobil yo‘lining 3 km.da, Quva tumani Baynalminal MFY Qo‘shkechik qishlog‘ida joylashgan “Qo‘shkechik” jome masjidi oldiga, 4R-112 “Farg‘ona xalqasi” avtomobil yo‘lining 182 km.da, Quva tumani Qayirma MFY Qayirma qishlog‘ida joylashgan “Mavlonxoji” jome masjidi, 4R-140 “Marg`ilon-Quva-Marxamat” avtomobil yo`lining 26 km.da, Quva tumani Damariq MFY Damariq ko`chasida joylashgan “Akbarobod” jome masjidi va 4k-832 “Begat-Tolmozor-Salim” avtomobil yo`lining 5 km.da, Quva tumani Tolmozor MFY Tolmozor ko`chasida joylashgan “Tolmozor” jome masjidlari oldilariga 3.27

“Toʻxtash va toʻxtab turish taqiqlanadi” yoʻl belgisini oʻrnatish ishlarini amalga oshirsin

3. Quva tumani Ichki ishlar bo‘limi YHXG (F.Xamrayev) oʻrnatiladigan yoʻl belgilarini tegishli tartibda hisobga olib, yoʻl harakati xavfsizligiga rioya qilinishini nazoratga olsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining oʻrinbosari O.Akbarov zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan vaqtdan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **X.Umarov**